# TALABALAR YOZMA NUTQIDA SINONIMLARDAN FOYDALANISHI.

Ilmiy rahbar: **Kurbanova Sevara**
Shogird: **Raxmatullayeva Aminaxon**
Doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.24242308

**Annotatsiya**
Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida sinonimlarning yozma nutqda foydalanishlarining lingvistik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek-ingliz tillarida sinonimlarning farqlari, o'xshashliklari hamda ularga misollar keltiriladi. Sinonim so'zlar nimaligi va ular qanday hollarda qo'llanilishi haqida ham ma'lumotlar berib o'tiladi. Ko'p uchraydigan sinonimlarni tanlash bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish usullari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** sinonim, yozma nutq, ingliz tili, o'zbek tili, lingvistik, uslubiy xususiyatlar, muammolar.

**ABSTRACT**
This article analyzes the linguistic and features of the use of synonyms in written speech in English and Uzbek. Also, the differences, similarities and examples of synonyms in English-Uzbek are given. Information is also provided about what synonyms are and in what cases they are used. Common problems associated with the selection of synonyms and methods for their elimination are considered.

**Keywords:** synonym, written speech, English, Uzbek, linguistic, stylistic features, problems.

**Абстрактный**
В данной статье анализируются лингвистические и стилистические особенности использование синонимов в письменной речи на английском и узбекском языках. Также приводятся различия, сходства и примеры синонимов в узбекско-английском языке. Предоставляется информация о том что такое синонимы и в каких случаях они используются. Рассматриваются распространенные проблемы, связанные с подбором синонимов, и методы их исключения.

**Ключевые слова:** синоним, письменная реч, английский язык, узбекский язык, лингвистичекие, стилистические особенности, проблемы.

Odatda, tilshunoslik sohasini va ba'zi muhim bo'lgan sinfarni tushuntirmasdan sinonimlarni to'liq tushunib bo'lmaydi. O'zbek va ingliz tillaridagi sinonim so'zlarning mazmun-mohiyat va stilistik xususiyatlari turlicha bo'ladi. Har bir xalqda sinonimlarning ma'nosidagi nozik farqlari ularning tafakkuri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Misol uchun: o'zbek tilida "ona","Vatan" kabi so'zlar kuchli ma'noga ega hisoblansa, ingliz tilida ukarning ekvivalentlari –

| O'zbek tili | Ingliz tili |
|---|---|
| Ulkan – katta | Huge – big |
| Xursand -- mamnun | Happy – pleased |


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

| | |
|---|---|
| Yordam bermoq – ko'maklashmoq | Help – assist |
| Boshlamoq – kirishmoq | Began – start |

"home","mother",'motherland" – ratsional ohangda qo'llanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muossasalarida talabalar yozma nutq ko'nikmalarini yusaltirish ilmiy fikrsh, mutaqil tahlil qilish va o'z dunyo qarashini aniq bayon qilishda muhim o'rin tutadi.

Yozma nutqda sinonimlardan foydalanish matnda aynan so'zlarning takrorlanishi kamaytirish, gaplarning mazmunlarini ma'noli qilish va so'z tanlashdagi imkoniyatlarni kengaytirib berishga hizmat qiladi. Lekin sinonim so'zlarni qo'llashda ularning ma'no nozikligini, uslubiy xususiyatlarini va kontekst talablarini ko'zdan kechirgan bo'lishi zarur sanaladi. Shuning uchun, sinonimlarning yozma nutqning mazmunan boy va usluban mukammal bo'lishida o'rni juda muhim.

**O'zbek va ingliz tillarida sinonimlarning qo'llanilishi.**

O'zbek va ingliz tillarida sinonimlar yozma nutqning mazmunan boyitish, fikrlarni aniq bayon etish va uslubiy takroriylikni oldini oladi. Sinonimlarning bu tillarda mavjudligi inonlarning fikrlarini turli shaklllarda ifodalashga ko'maklashadi. Ularning qo'llanilishi matn mazmunini, nutq vaziyat va so'zlarning o'zaro birlashish sharoitlariga bog'liq. Masalan, o'zbek tilida muhim, dolzarb hamda ingliz tilidagi important, significant, essential so'zlari ayrim matnlarda bir-biriga yaqin ma'nolarda qo'llanadi. Biroq, ularning mazmuniy xususiyatlari turlicha. Shu sababli, sinonim so'zlarni tanlashda nafaqat ularning mazmuniga, balki kontekstga ham nazar solish lozim. O'zbek va ingliz tilidagi sinonimlar turlicha o'qilishi va yozilishi mumkin, lekin ular bir-biriga yaqin yoki o'xshash ma'nolarni ifodalaydi. Yuqorida keltirilgan sp'zlar ikki tilda ham sinonimlarnng ummumiyligini anglatadi. Shu bilan bir qatorda, so'zlarni qo'llashdan oldin ,albatta, matn mazmunga ham alohida ahamiyat berish zarur. Ingliz va o'zbek tillaridagi sinonimlarning bir-biriga yaqin ma'noliligi shuni anglatadiki, hat ikki tilda biron bir tushuncha yoki halatni ifodalashda ma'nodosh yoxud ma'nosi yaqin bo'lgan so'zlarni qo'llash matnning ta'sirchanligini oshirishga, takrorlarning oldini olishga va fikrlarni to'laligicha bayon qilishga katta hissa qo'shadi.

Biroq, ayrim o'rinlarda so'zlar uslubiy xususiyatlari jihatdan tubdan farq qiladi. Masalan, o'zbek tilida:

- Chiroyli – ommabop va umumiy ma'noli so'z : chiroyli rasm.
- Go'zal – badiiy va ta'sirchan ifodali so'z : go'zal tabiat.
- Ko'rkam – tashqi ko'rinishi tartibli va ko'zni quvotiradigan narsaga nisbatan qo'llanadi : ko'rkam bino (yigit).

Bunday holatlar ingliz tilda ham ko'p kuzatiladi. Masalan, barcha birdek foydalanuvchi :

- Beautiful – juda chiroyli : a beautiful picture.
- Pretty – yoqimli va chiroyli : a pretty girl.
- Attractive – o'ziga jalb qiluvchi : an attractive design.

Misollardan ko'rinib turibdiki, sinonimlar yaqin ma'nolarni bildirsa ham, ularning har biri turlicha kontekst bir-birining o'rnida ishlatib bo'lmaydi. Negaki, har bir so'zning o'ziga xos shalkli va qo'llanilishi lozim bo'lgan doirasi mavjud. Sinonimlarning asosiy xususiyatlaridan yana biri bu – konyekstga bog'liqlik. Kontekst bu nutqiy vaziyat, matn va gaplarning jamlansadsidir. So'zlarning qanday ma'noda ishlatilayotganini anglashga yordam beradi. Bir- biri bilan yaqin ma'nodagi so'zlar ayrim so'zlarning o'rniga qo'llanilishi mumkin. Lekin ba'zi holatlarda almashtirilsa gapning mazmunini o'zgartirib, tabiiy chiqmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun, chiroyli va go'zal so'zlarini olsak :

- Bu chiroyli manzara.


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

• Bu go'zal manzara.

Ikkala gapning mazmuni ham bir xil: manzaraga nisbatan yoqimli va ko'rkam ekanligi ifoda etilgan. Ingliz tilda esa bu so'zlar beautiful va lovely so'zlari ham bir xil ma'zolarni anglatadi.

• It is a beautiful garden.
• It is a lovely garden.

Birinchi gapda manzaraning faqatgina chiroyliligi aytilgan bo'lsa, ikkinchi gapda esa chiroyliligi bilan birga yoqimliligi ma'nolarini sezish mumkin.

**Sinonim tanlashda duch keladigan muammolar.**

Yozma nutqda sinonim tanlash ko'plab muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Negaki, ayrim sinonim so'zlar boshqalarining o'rnida qo'llanganda gapning asosiy mazmunini yo'qolib borishiga olib keladi. Ayniqsa, ilmiy maqola, referat, esse va tezis yozish jarayonida sinonim so'zlarni tanlashda juda ehtiyotkor bo'lish lozim. Chunki sinonimlar o'rtasida ma'no, uslubiy xususiyatlari, qo'llanish doirasi va boshqa so'zlar bilan kirishishiga ko'ra ko'plab farqlar mavjud bo'ladi.

O'zbek va ingliz tillarida noto'g'ri sinonim tanlash gapning noaniq bo'lishiga matnning uslubiy jihatdan takomillashmagan ko'rinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan, talabalar nafaqat so'zlarning lug'aviy ma'nosiga, balki kontekstga mosligini ham inobatga olishi zarur. Sinonim tanlashda duch keladigan asosiy muammolardan biri bu – ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarning o'zaro farqlarini anglay olmaslikdir. Ba'zi so'zlar umumiy ma'noni anglatsa-da, ularning aniq kontekstdagi mazmuni tbdan farq qiladi. Agarda bu farqlar anglay olinmasa, gapning mazmuniga mutlaqo to'g'ri kelmagan so'zni tanlash oqibatda matnning to'liq ma'nosini o'zgartirib yuboradi. Masalan, O'zbek tilidagi bilim va mahorat so'zlari insonni muayyan holatni bildirsa-da, bir xil ma'noni anglatmaydi.

• Bilim – o'qish, o'rganish, kuzatish va tajriba orqali egallanadigan ma'lumotlar hamda tushunchalar majmui.
• Mahorat – muayyan ish yoki faoliyatni samarali va puxta bajarish qobilyat.

Talaba ingliz tilidan chuqur bilimga ega.

Talaba ingliz tilida erkin gapirish mahoratga ega.

Ushbu gapdagi so'zlarni bir-birining o'rniga qo'llab bo'lmaydi.

Ingliz tilida ham bunga o'xshash so'zlar talaygina. Buni knowlage va skill so'zlari o'rtasida kuzatiladi. Masalan,

• Students need knowlage of grammar. – Talabalarga grammatik bilimlar kerak.
• Students need writing skills.—Talabalarga yozish ko'nikmalari kerak.

Quyidagi gaplarda knowlage va skill o'rganish jarayoni bo'lsa ham, turli jihatlarni ifodalamoqda. Birinchi gapda grammatika qoidalarini bilish, ikkinchi gapda esa yozish ko'nilmalari nazarda tutilgan. Shu bois, bu so'zlar ummumiy jihatga ega, biroq bular sinonim so'zlar hisoblanmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.
2. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati (5 jildlik). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
4. Kristal D. Ingliz tilining Kembrij ensiklopediyasi. – Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti, 1995.
5. Kruz D. A. Leksik semantika. – Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti, 1986.
6. Layons J. Semantika. – Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti, 1977.
7. Merfi M. L. Semantik munosabatlar va leksika. – Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti, 2003.



© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

8. Palmer F. R. Semantika. – Kembrij: Kembrij universiteti nashriyoti, 1981.
9. Svan M. Ingliz tilining amaliy qo'llanilishi. – Oksford: Oksford universiteti nashriyoti.
10. Oksfordning ilg'or ingliz tili o'quv lug'ati. – Oksford: Oksford universiteti nashriyoti.
11. Arnold I. V. Zamonaviy ingliz tili leksikologiyasi. – Moskva: Oliy maktab, 1986.


© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.